ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2025.5/1

www.ilmsarchashmalari.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5/1-son (may 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

Sotsial muammolar ham masofaviy ta'limni to'liq amalga oshirishda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardir. Misol uchun, ba'zi oilalarda talabalar uchun kerakli qurilmalar yoki kompyuterlar yo'q. Bu o'qitish jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, o'qitish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minotlar va raqamli platformalar ham barcha hududlar uchun teng imkoniyat yaratmayapti.

Yana bir muhokama qilinadigan masala – masofaviy ta'limning ta'lim sifatiga ta'siri. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish an'anaviy o'qitish uslublariga qaraganda samarali emas. Chunki talabalar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqaning yo'qligi, ko'proq mustaqil o'rganish va o'qituvchining shaxsiy yondashuvi talabalar o'zlashtirishida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, boshqa tadqiqotlar masofaviy o'qitishning o'ziga xos afzalliklarini ta'kidlaydi: talabalar uchun qulaylik, o'rganish sur'atini nazorat qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va boshqalar.

Masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarishning samarali yondashuvlarini ishlab chiqishda, yuqorida keltirilgan barcha fikrlar va qarashlar inobatga olinishi kerak. Yuqoridagi muammolarni hal etishda hamkorlik va yangi yondashuvlar zarur bo'ladi. Bu nafaqat o'qituvchilar va talabalar, balki davlat, ta'lim tashkilotlari va texnologiya mutaxassislarining hamkorlikda ishlashini talab qiladi.

Xulosa. Masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarish bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda, ayniqsa, raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning rivojlanishi fonida. Tadqiqot davomida masofaviy o'qitishning samarali tashkil etilishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, shu jumladan, texnologik infratuzilma, o'qituvchilarning malakasi, talabalar bilan aloqaning doimiyligi va shaxsiylashtirilgan ta'lim jarayonining ahamiyati o'rganildi. Masofaviy o'qitishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun texnologik resurslarning, raqamli platformalarning va onlayn vositalarning yuqori darajada mavjudligi zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning malakali tayyorlanishi va ular uchun doimiy malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi talab etiladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning motivatsiyasini saqlashda katta ahamiyatga ega. Biroq masofaviy o'qitishning keng tarqalishi ba'zi hududlarda texnik cheklovlar, raqamli ta'lim platformalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va talabalar uchun zarur qurilmalar mavjud emasligi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va zarur infratuzilmani rivojlantirish kerak. Umuman olganda, masofaviy o'qitishning samarali tashkil etilishi uchun ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari, jumladan, o'qituvchilar, talabalar, ta'lim muassasalari va davlat organlari hamkorlikda ishlashi lozim. Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish orqali masofaviy ta'limni yanada samarali va yuqori sifatli qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abdumajidov, A., Togayeva, N. (2022). Ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish masofaviy ta'lim. Models and methods in modern science, 1(16), 15–20-betlar.

(2). Dustkabilovich, R.O. (2023). Masofaviy ta'lim texnologiyalari tasnifi. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 3(2).

(3). Ergashevich, E.A., Sur'at, T. (2023). Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. Journal of Innovation in Education and Social Research, 1(4), 177–179-betlar.

(4). Idrisovich, O.R., Arislanbayevna, Q.X. (2024, April). Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo nalishi talabalarini masofaviy o'qitishning ilmiy-metodik materiallarining mazmunini takomillashtirish. In Konferensiyalar| Conferences. Vol. 1, № 9, p. 686–689.

(5). Meliqoziyevich, S.I. (2023). Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. "Qo'qon universiteti xabarnomasi", 152–155-betlar.

(6). Valisherovna, U.M. (2023). Ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 22(8), с. 152–156.

(7). Yorqinov, H. (2023). Ta'lim tizimida masofaviy o'qitish tizimi imkoniyatlari. Scientific Impulse, 1(10), p. 1285–1291.

(8). Sharipova, M.Z. (2024). Masofaviy ta'limda interfaol o'qitish metodlari: talabalar faoliyatiga ta'siri. World of Philology, 3(4), p. 112–117.

Shadiyeva Nigora Sharipovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti "Geografiya" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD); nigrollashadiyeva10@gmail.com)

GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISH METODIKASI VA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI

Annotatsiya. *Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy globallashuv jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, ijodiy tafakkur, innovatsion fan va texnologiyalarni, innovatsion ta'lim yo'nalishlari asosida*

xalqaro pedagogik tajribani o'zlashtirish zarurati tug'ilmoqda. Ta'lim va tarbiya uzluksizligini ta'minlash doimo e'tiborda bo'lib kelgan masalalardan biridir. Buning uchun ta'lim jarayonida bolalarning nutqi, muloqot qobiliyatlari, hissiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kerak, jumladan: toza joy, toza havo va yetarli darajada normal haroratli xona, yoritish, xavfsizlik choralari, sport, dam olish maydonchalari mos ravishda jihozlangan bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: *munozara, trening, ishbilarmonlik o'yini, aql, fikrlash, o'z-o'zini hurmat qilish, bola rivojlanishi.*

Шадиева Нигора Шариповна (доцент кафедры «География» Бухарского государственного педагогического института, кандидат географических наук; nigrollashadiyeva10@gmail.com)

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ И РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ГЕОГРАФОВ

Аннотация. *В современных процессах глобализации в нашей стране возникает необходимость подготовки квалифицированных кадров, углубления демократических преобразований и реализации концепции основ гражданского общества, творческого мышления, овладения инновационными науками и технологиями, международного педагогического опыта на основе инновационных образовательных тенденций. Обеспечение преемственности образования и воспитания является одним из вопросов, который всегда находился в центре внимания. Для этого необходимо создать благоприятные условия для развития речи детей, коммуникативных навыков, эмоционального, умственного, физического и социального развития в образовательном процессе в том числе: чистое пространство, свежий воздух, помещение с нормальной температурой и достаточным освещением, технику безопасности, занятия спортом, отдыха, детские площадки оборудованы соответствующим образом.*

Ключевые слова: *обсуждение, тренинг, деловая игра, интеллект, мышления, самооценка, развитие ребенка.*

Shadieva Nigora Sharipovna (Associate Professor of the Department of Geography of the Bukhara State Pedagogical Institute, Candidate of Geographical Sciences; nigrollashadiyeva10@gmail.com)

ANALYSIS OF RESEARCH ON TEACHING METHODOLOGY AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF GEOGRAPHY STUDENTS

Annotation. *In the process of modern globalization in our country, there is a need to train qualified personnel, deepen democratic transformations and implement the concept of the foundations of civil society, mastering international thinking based on creative thinking, innovative sciences and technologies, and innovative education. Ensuring the continuity of education and upbringing is one of the issues that has always been in the spotlight. To do this, it is necessary to create favorable conditions for the development of children's speech, communication skills, emotional, mental, physical and social development in the educational process, including: clean space, fresh air, a room with a normal temperature and sufficient lighting, safety precautions, sports, recreation playgrounds are equipped accordingly.*

Keywords: *discussion, training, business game, intelligence, thinking, self-esteem, child development.*

Kirish. Jahonda ta'lim tizimida talabalarning bilim olishi hamda bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini ta'minlash, kasbiy-pedagogik faoliyatda innovatsion shakllantirish; ta'limda ilg'or texnologiya, didaktik vositalar va uskunalardan keng foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari ta'lim muhitining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'lim beruvchilarning ta'lim-tarbiya berish usullarini va o'qitish vositalarini ham o'zgartirishga olib keladi. Talabalarni o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan kirib kelishi ularning materialni o'zlashtirishi, tezkor kerakli ma'lumotlarni olishlariga xizmat qiladi. Dasturiy ta'lim vositalardan keng foydalanish, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalar sifatida e'tirof etilmoqda

Dunyoda fan va texnika rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy ijtimoiy o'quv jarayonini virtual loyihalash muhitga daxldor global ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. UNESKO tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish; o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to'laqonli joriy etish; tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlari uchun ta'lim mazmunini innovatsion loyihalash; innovatsion kasbiy kompetensiyalarini tarkibiy qismlarga ajratish; ta'limning yangi metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta'lim amaliyotida qo'llash talab etilmoqda [1]. Taraqqiyot bosqichlarining dolzarb masalalari ta'limning ustuvor yo'nalish si-

fatida bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda, innovatsion modellarini ish-lab chiqish, bo‘lajak kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Dunyoda bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim berish jarayonini yuksak darajaga olib chiqish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ular bilan hamkorlik tadqiqotlarni olib borish, amaliyotga qo‘llash talab etilmoqda.

2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi [5]. Ushbu konsepsiya ta’lim tizimida pedagoglar, jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarni, kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik tayyorgarlik darajasi hamda ijodiy taffakkurini rivojlantiradigan, jahon andozalariga mos keladigan innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bugungi kun uchgun ustuvorlik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan “Geografiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion ta’limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va dasturiy ta’lim ilovalaridan foydalanib ta’lim berish, shu yo‘nalishga tegishli metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi mustahkam poydevor qurishdan iborat bo‘lib, ushbu poydevor sog‘lom, har sohada rivojlangan barkamol mutaxassis kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Mazkur huquqiy me’yoriy hujjatlar doirasi alohida e’tiborga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda “har bir bolaning ta’lim olishdagi teng huquqli” ligini ta’minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan “inklyuziv ta’lim” tushunchasi ham kiritildi. Shuningdek, mazkur qonunning 55-moddasida “rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalar ta’lim olish huquqiga egadirlar”, deyiladi [5]. Demak, qonunga ko‘ra, uzluksiz ta’lim tizimida barcha yengil darajadagi alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan yoshlarning ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda, ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashga hizmat qiladi.

Hozirgi zamon globallashuv jarayonida yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurati, demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirishda, kreativ fikrlovchi, innovatsion texnologiya hamda dasturiy ta’lim vositalarni mukammal egallagan, mutaxassis kadrlarning innovatsion ta’lim tendensiyalari asosidagi xalqaro pedagogik tajribaga ko‘ra, “Geografiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy faoliyatga oid kreativligini rivojlantirishda birqancha dasturlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta’lim vositalarining yangi avlodlarini takomillashtirish orqali majburiy va tanlov fanlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida talabalarni innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida dasturiy ta’lim vositalarini samarali qo‘llash orqali ularning imkoniyatlari to‘liq ochib berilmaganligi, kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi asosida o‘qitishni mazmunan takomillashtirish jarayonini keng joriy etish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [6].

Pedagog olim N.A.Muslimov tomonidan talaba yoshlarda kasbiy xislatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. Pedagog olim V.M.Blinovning fikricha, ta’lim-tarbiya ishlarida yuqori samaradorlikka erishish talabalarning individual qobiliyatlari, layoqatlarini e’tiborga olib tabaqalashtirilgan topshiriqlar berishni taqozo etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashning samaradorligi yuqori bo‘lishi uchun dars mazmunini innovatsion texnologiyalarga asoslangan dasturiy vositalar asosida tashkil etishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik [6].

Respublikamiz olimlaridan B.M.Abdurahmonovning ilmiy ishlarida, umumiy o‘rta talim maktablari o‘quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirish jarayonining tasviriy-didaktik jihatlari ta’lim vositalari tasniflanishida ta’lim muhiti va ular orasidagi uzluksizlik va uzviylikni hisobga olish asosida metodik jarayonni amalga oshirish tizimi va modeli ta’lim vositalaridan foydalanish va model komponentlarining uzviy bog‘liqligi asosida ishlab chiqilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarining baholash darajalarini refleksiv tahlil qilish va tahliliy faoliyat natijalari orqali xaritagrafik savodxonlikning kafolatlangan samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning geografik madaniyatining shakllanishini ta’minlovchi ta’lim vositalari majmuasidan foydalanishning didaktik, ergonomik metodik talablari elektron darslik, interfaol xaritagrafik qo‘llanmalar asosida takomillashtirilgan [6].


D.N.Abdullayevaning dissertatsiya ishida “Geografiya” fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida elektron ta’lim vositalaridan foydalanish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘qituvchilarning axborot kompetentlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirish mazmuni (metodik-tashkiliy, texnologik jarayonli, kreativ) raqamli texnologiyalar vositasida ta’limni axborotlashtirish talablari hamda didaktik

maqsadlarini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) integratsiyalash asosida o‘qitish metodikasi aniqlashtirgan [7].

F.A.Xamroyevaning ilmiy tadqiqot ishida mediatexnologik ta’limning tabiiy geografik fanlarga doir bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni, mediatexnologiyalarning tashkiliy (ijtimoiy, individual, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ, pedagogik, psixologik) komponentlari mazmunini ochib berish orqali asoslagan bo‘lib, geografik fanlarni o‘qitish jarayonlarini takomillashtirishga ta’sir etuvchi omillar (metodik, didaktik, psixologik) mediatexnologiyalarning xususiyatiga ko‘ra tasniflash (audiovizual, multimedia, gipermatnli, xolo-grafik) asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. “Xorijiy oliy ta’lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta’minlash yo‘llari” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida xorijiy oliy ta’lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta’minlash omillari xalqaro tajribada keng tarqalgan «bilimlarning kommersiyalanishuvi» va «transnatsional ta’lim» faoliyat mazmuni asosida aniqlashtirilib, oliy ta’limda sifat va raqobatbardoshlikni ta’minlashning pedagogik mexanizmlari diagnostik (Diagnostic), metrik (Metric), ichki (Internal), tashqi (external), raqobat (competitive) benchmarking usullariga ustuvorlik berish asosida oliy ta’lim sifatini belgilovchi komponentlar o‘zaro moslik va o‘xshashlikni me’yoriy tavsiflashga yo‘naltirilgan tyuning metodini kompetensiyalarga asoslangan ta’lim berish bilan maqbul uyg‘unlashtirish asosida oliy ta’lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta’minlashning akademik va institutsional strategik jihatdan rejalashtirish mexanizmi oliy ta’limning xalqarolashuvi jarayoni xorijiy talabalar sonining oshirilishi, professor-o‘qituvchilar almashinuvining ko‘payishi, xalqaro ta’limni tashkil etish orqali budjetdan tashqari mablag‘larning oshirilishi kabi ko‘rsatkichlarga tayangan holda takomillashtirilgan [6].

Tahlil va natijalar.



1.1-rasm. Innovatsion kasbiy faoliyatga ega talaba o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi.

1.1-jadval

Talabalarda kreativ tafakkurini rivojlantirish mezonlari

№	Mezonlar	Mazmuni
1	Bilim	Bilimlardan xabardor bo‘lish, ularni o‘zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi.
2	Tushunish	Bilimlar yuzasidan fikrlash, mushohada yuritish, nazariy holatdan amaliyotga ko‘chish mantig‘ini o‘zlashtirish.
3	Qo‘llash	Bilimlarni amaliyot (amaliy xarakter)da qo‘llash.
4	Analiz	Mavjud bilimlarga tayangan holda yaxlit, bir butun obyekt, hodisa va voqe’lik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o‘rganish, juz’iy xulosa chiqarish.
5	Sintez	Mavjud bilimlarga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun obyekt, hodisa, voqe’lik va jarayon to‘g‘risida umumiy xulosa chiqarish.
6	Baholash	Shaxsning nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikma, malakalarga egaligini baholash.

Xulosa va tahlillar. Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, innovatsion kasbiy faoliyatga ega boʻlgan talabalarda quyidagilar namoyon boʻladi. Boʻlajak pedagoglarning xayoliga kelmagan gʻoyalarni bildiradi, oʻzlarini ifoda etishning oʻziga xos uslubini tanlaydi, baʼzan mavzuga aloqasi yoʻq yoki gʻayri oddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, gʻoyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal koʻradi, muammoning yechimini topishda noanʼanaviy yondashuvni tanlaydi.

1. 5140600–Geografiya taʼlim yoʻnalishi talabalarini oʻqitish metodikasi va kasbiy kompetensi-yalarini rivojlantirishga oid jarayonini takomillashtirish muammosi, uzluksiz taʼlim tizimida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni yetishtirish oʻziga xos muhim ahamiyat kasb oʻrganildi. Ushbu muammoning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, ularning nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi, shuningdek, kasbiy tayyorgarligidagi kreativligini takomillashtirishda innovatsion yondoshuvlar asosida, dasturiy taʼlim vositalarining ishlab chiqilishi, yuqorida izohlanayotgan jarayonning samarali tashkil etilishiga imkon berdi.

2. Geografiya taʼlim yoʻnalishi talabalarini oʻqitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid kasbiy faoliyat turlari: tashkiliy, kommunikativ, informatsion, rivojlantiruvchi, mobilizatsion, nazorat, texnik va boshqalardan iborat ekanligi, pedagog mutaxassis faoliyatlaridagi amaliy jarayonlarni bajarishlariga qarab ularning vazifalari (umumiy) oʻqituvchi faoliyati tuzilmasi va (xususiy) faoliyat turlaridan iborat ekanligi aniqlandi.

3. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatgatayyorlash jarayonini rivojlantirishning asosi sifatida kompyuter vositasida amalga oshiriladigan dasturlashtirilgan taʼlim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi nazariy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi "Nogironligi boʻlgan shaxslarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5270-farmani.

(2). Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-4860-qarori.

(3). Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Alohida sifatli ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-82-farmoni.

(4). Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi PF-5847-farmoni.

(5). Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi PF-5847-farmoni.

(6). Shadiyeva N.Sh. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy taʼlim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (geografiya taʼlim yoʻnalishi misolida). Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand, 2024, 125-bet.

(7). Shadiyeva N.Sh. Amaliy va laboratoriya mashgʻulotlarida virtual taʼlim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. "Ilm-fan texnologoyalar", Buxoro, 2023, 3 (1)-son, 52–57-betlar.

Qutlimuratova Barno Xursandbekovna (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; e-mail: kutlimuratovab0712@gmail.com)

INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA OʻRGANAYOTGAN OʻZBEK TALABALARI: KORPUS YORDAMIDA XATOLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida oʻrganayotgan oʻzbek talabalari tomonidan yoʻl qoʻyiladigan tipik lingvistik xatolarni oʻrganadi. Tahlil Urganch davlat universiteti bakalavriat talabalari tomonidan yozilgan 40 ta akademik insho asosida tuzilgan. Sketch Engine platformasidan foydalanib, xatolar aniqlandi, 13 xil turga ajratildi, ularning chastotasi va naqshlari uchun tekshirildi. Natijalar imlo, maqoladan foydalanish, tinish belgilari va soʻz tanlashdagi xatolar eng koʻp uchraganini, jumla tuzilishi va bogʻlovchi soʻzlardan foydalanish bilan bogʻliq muammolar kam uchraydi.*

Kalit soʻzlar: *xatoliklarni tahlil qilish, ingliz tili chet tili sifatida (EFL), korpus lingvistikasi, til oʻrganish.*

Кутлимуратова Барно Хурсандбековна (докторант Ургенчского государственного университета; e-mail: kutlimuratovab0712@gmail.com)

УЗБЕКСКИЕ СТУДЕНТЫ, ИЗУЧАЮЩИЕ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ: АНАЛИЗ ОШИБОК С ПОМОЩЬЮ КОРПУСА

Аннотация. *В этом исследовании изучаются типичные лингвистические ошибки, допускаемые узбекскими студентами, изучающими английский язык как иностранный с помощью подхода «корпус обучающегося». Анализ основан на 40 академических эссе, написанных студентами Ургенч-*

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

FIZIKA-MATEMATIKA		
Alishev Abdumannon, Baxtiyorova Kamola	Ba'zi integro-differensial tenglamalar sistemasining asimptotik integrallash	**3**
Azimov Qaxramon, Rahimov Boyhuroz Shermuhammadovich	Sezgirlikni tahlil qilishning bir usuli haqida	**8**
Axmedov Nasriddin Baxodirovich	Elastik to'ldiruvchili silindrik qobiqlarning xususiy chastotalari	**11**
Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich, Ergasheva Nilufar Mansurovna	Tovush tezligidan katta bo'lmagan tezlikda harakatlanuvchi nuqtaviy manbadan hosil bo'ladigan to'lqin xususiyatlari	**16**
Usarov Begzod O'ralovich	"To'rtburchaklar" usuli va uning xossalari	**24**
Nushtayeva Ozoda Xasilovna	O'z-o'zini tozalash funksiyasiga ega bo'lgan quyosh batareyasi yuzasining ifloslanish darajasini masofadan monitoring qilish uchun qurilma	**32**
Vaisova Moxira Davlatboyevna, Salayeva Rohila Rustamovna	$\mathbb{C}^2$ fazoda α-subgarmonik funksiyaning integral xossasi	**38**
FALSAFA		
Azimov Ulug'bek Abduxalilovich	Ijtimoiylashuv jarayonida qadriyatlarning roli	**44**
Shonazarov Jamshid Shuhratovich	Davlat xizmatchilari faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muaommolari va yechimlar	**47**
Joldasbayev Oralbay Yernazarovich	Berdaq ijtimoiy-falsafasiy qarashlarida tenglik va adolat kategoriyalarining tahlili	**50**
Ahmedov Farruh Nurmuhammad o'g'li	Yangi O'zbekiston yoshlarining g'oyaviy tarbiyasi	**53**
Rustamov Ramz Rizoqulovich	Jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yo'llari	**58**
Jamolov Davronbek Baxtiyor o'g'li	Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda ta'sir etuvchi omillar	**61**
Ochilov Sarvar Safayevich	Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhit	**64**
Utegenova Jamila Djolmurzayevna	Bioetika sohasini shakllantirish mexanizmlari	**68**
TILSHUNOSLIK		
Xidirova Maxfuza Amirqulovna	Yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining lingvostatistik va tematik tahlili	**71**
Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich	Diskurs kognitiv tahlilining kontekstual aspekti	**76**
Irisovna Sayida Abdiyeva	Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni	**78**
ADABIYOTSHUNOSLIK		
Allashev Akbarbek Anvar o'g'li	Adabiyotda konflikt va ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasidagi aloqadorlik	**81**
Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi	"Boburnoma" sujeti va tavsiflash prinsipi	**84**
Qarshibayeva Uljan Davirovna	Balzak asarlari qahramonlari taqdiriga ijtimoiy muhit ta'siri	**87**
Rakhimova Dilfuza Masharip qizi	Uilyam Golding asarlarini o'rganishning tamoyillari	**91**
Kenjayeva Umida, Oydinova Parizod	Adekvat topishmoqlar	**94**
JURNALISTIKA		
Egamnazarov Bobur	Jurnalistikada ixtisoslashuv va qurilish tematikasini yoritishdagi o'ziga xosliklar	**99**
Kallibekova Gulnara Palbekovna	Leksik birliklarni to'g'ri qo'llashda jurnalist mahorati	**101**

PEDAGOGIKA		
Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich	Talabalarni milliy kontent asosida o‘qitishning modeli	**106**
Toshpo‘latova Inobat Ulug‘bek qizi	Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	**109**
Abduraxmonava Muxayoxon Abduraximovna	Talabalarni o‘qitishda STEAM ta’limining qollanilishi	**111**
Axmedov Akmal Yusufovich	Kommunikativ kompetentlik bo‘lajak pedagog ijtimoiy va kasbiy faoliyati asosidir	**115**
Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna	Loyihaga asoslangan ta’lim metodining dars jarayonida qo‘llanilishi va bunda pedagogning roli	**118**
Abdullayeva Saida Malikovna	CBI yondashuvining chet tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati	**120**
Xuramov Ilxom Panjiyevich	Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish	**125**
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari	**129**
Davletova Ullijon Sapavoy qizi	Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik rejasi tamoyillari	**132**
Urunova Shaxlo Rafikovna	Terminologik leksikani o‘qitishda zamonaviy interaktiv yondashuvlar	**135**
Nizamova Umida Sandjarovna	Nofilologik yonalishi talabalariga chet til o‘qitishda produktiv yondashuvning ahamiyati	**137**
Juginisova Juldiz Imnixashimovna, Asanova Uldawlet Sagindikovna, Saxanova Liza Jamixatovna	Masofaviy o‘qitishni tashkil etish va boshqarish	**140**
Shadiyeva Nigora Sharipovna	Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili	**143**
Qutlimuratova Barno Xursandbekovna	Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan o‘zbek talabalari: korpus yordamida xatoliklar tahlili	**147**
Matniyazov Xasan Kamolovich	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatish va nazorat qilish	**150**
Каландаров Сардар Ибрагимович	Свободное обучение и сотрудничество: педагогическая система Селестена Френе	**153**
Айбергенова Айнура Рустемовна	Развитие навыков письменной речи у студентов-медиков при обучении РКИ	**156**
Исраилов Джахонгирхон Джамшидхонович	Типы медицинских текстов и их применение в обучении английскому языку будущих врачей	**159**
Hodiyeva Yulduz Yunusovna	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun SCAMPER texnologiyasidan foydalanish	**162**
Irbutaeva Nigora Dilshodovna, Makhmudova Asal Malikovna, Normamatova Maftuna Fozilovna	Studying Medical Terms by Non-Russian-Speaking Students in Russian Language Classes at Medical Universities	**165**
Xakimova Munira Xabibullayevna	Main Factors Which are Influenced on Reading Skills	**169**
Arslonbekovna Ra’no Arslonbekova	Transforming traditional teaching through ESP	**171**
ILMIY AXBOROT		
Hamrayeva Saida Ismailovna	“Ma’lumotlar intellektual tahlili” fani uchun CRISP-DM metodologiyasi	**175**
Madatov Xabibulla Axmedovich	Bazis so‘zlar bilan ishlovchi elektron tizim: lingvistik va texnologik qarashlar	**178**
Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich	Navro‘zning paydo bo‘lish tarixi va rivojlanish bosqichlari	**181**
Maxsudova Xolisxon Ummatovna	Mashinasozlik terminologiyasining lingvistik tuzilishi va kontekstual foydalanish	**184**
Maxammadjonova Mushtariybonu Jamoliddin qizi	Ingliz va o‘zbek tillarida “motam” semantik maydonining o‘ziga xos xususiyatlari	**186**

Yuldashev Doniyor Taxirovich, Pulatova Muhayyo Azimboyevna	Ingliz va o‘zbek tilidagi atoqli otlarning tarjima metodlari	**189**
Jurayeva Iroda Axmedovna	J.K.Roulingning “Garri Potter” asaridagi antroponimlarning milliy-lisoniy xususiyatlari	**193**
Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich	Qoraqalpoq tilida antonimik munosabatdagi fe‘l so‘z turkumining guruhlari	**196**
Qodirova Xurshida Marselovna	Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati natijalari va dolzarb vazifalar	**199**
Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi	“Smile/tabassum” tushunchalarining ingliz va o‘zbek tillarida jins va yosh omillari asosida ifodalanishining lingvistik tahlili	**202**
Karimova Munisa Yaxyoyevna, Imamov Navruz Pattaqulovich	O‘zbek va ingliz tillarida fe’lning chegaralanmaganlik xususiyati va harakat tarzi qiyosiy tahlili	**205**
Dlanova Palzira Gulimbetovna	Talabalarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari	**208**
Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich, Shomurotova Nigora Otabayevna	She’riy tarjimada milliy koloritning aks etishi	**211**
Каримова Ферузахон Иноятовна	Словообразование и анализ сложных слов английского и узбекского языков	**216**
Солиев Ибодуллохон Исматуллаевич	Механизмы внедрения институциональной автономии в ВУЗах узбекистана: опыт, проблемы и перспективы	**219**
Анварова Мафтунахон Дилмурод кизи	Эволюция концепта семьи в разных культурах	**221**
Саттарова Елена Анатольевна	Лингвистическое определение эвфемизмов в медицинской профессиональной речи	**224**
Qurbonbayeva Sojidabonu Muxtar kizi	Linguocultural Study of Proverbs in English and Uzbek Languages	**226**
Mirzayeva Gulnozakhon Ilkhamovna	A Comparative Analysis of Phraseological Units Depicting the Human Psyche in English and Uzbek	**229**
Polvanova Mahzuna Farxadovna	Analyzing the Grammatical Structure of Phraseologizms that Contain the Word “Money” in Both Uzbek and English	**231**
Rahmonova Gulhayo Khalilovna	The Peculiarities of Used Stylistic Devices in “The Portrait of the Artist as a Young Man” by James Joyce	**234**
Kodirova Dilrabo Shamsidinovna	Metonymic Transition of Words into Mining Terminology	**237**
Polvannazirova Sevara, Atajonova Zukhra	Navigating Linguistic and Cultural Complexities in Literary Translation: a Case Study of Utkir Hoshimov’s “Tarnov”	**241**